Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundizxon Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	770
Saidova Dilbar Erkinovna	
Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish	773
Xakimova Xosiyat Jurayevna	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari	776
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'appon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati	785
Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich	
Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari	790
Fozilova Mohigul Farxodovna	
Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов	794
Исаматдинова Машхура Икромжон кизи	
O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	799
Shokirov Sherhali Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich	
Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili	803
Nurmanova Nazira	
Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	807
Toshova Shaxnoza Tojidorovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish	811
Badalov Dilmurod Abdixalilovich	
Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari	817
Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi	
Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking	822
Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari	826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonovna	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi	



BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI ERGONOMIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Usmonova Xafiza

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-8987-9422

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida ergonomik yondashuvni tatbiq etishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Ergonomika tamoyillariga asoslangan o'quv dizayni, pedagogik jarayonning qulaylik, samaradorlik va funksional moslik mezonlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Pedagogika ta'lim yo'nalishida o'quv jarayonini loyihalash, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish hamda ergonomik muhit yaratish bo'lajak mutaxassislarning metodik kompetentligini rivojlantirishga ta'siri ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: metodik kompetentlik, ergonomik yondashuv, ergonomika, tarbiya fani o'qituvchisi, pedagogik texnologiya, o'quv dizayni, didaktik qulaylik, innovatsion metodlar.

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations of applying an ergonomic approach to the formation and development of the methodological competence of future teachers of education. The criteria of convenience, efficiency, and functional suitability of the pedagogical process based on ergonomic principles are scientifically analyzed. The study substantiates the impact of educational process design, the use of interactive and innovative teaching methods, and the creation of an ergonomic educational environment on enhancing the methodological competence of future pedagogical specialists.

Key words: methodological competence, ergonomic approach, ergonomics, teacher of education, pedagogical technology, educational design, didactic convenience, innovative methods.

Аннотация: В статье раскрываются теоретико-методологические основы применения эргономического подхода в формировании и развитии методической компетентности будущих учителей воспитательной дисциплины. Проанализированы критерии удобства, эффективности и функциональной пригодности педагогического процесса, основанные на принципах эргономики. Научно обосновано влияние проектирования образовательного процесса, использования интерактивных и инновационных методов обучения, а также создания эргономичной образовательной среды на развитие методической компетентности будущих специалистов педагогического образования.

Ключевые слова: методическая компетентность, эргономический подход, эргономика, учитель воспитательной дисциплины, педагогическая технология, образовательное проектирование, дидактическое удобство, инновационные методы.

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, pedagogning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi bo'lajak mutaxassislarning metodik kompetentligini rivojlantirishni ustuvor vazifaga aylantirmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, tarbiya fani o'qituvchilariga bevosita taalluqlidir, chunki ular shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ madaniyati hamda tarbiyaviy qadriyatlarini shakllantirishda yetakchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois tarbiya fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligi zamonaviy pedagogik, psixologik, axborot-kommunikatsion va didaktik yondashuvlar asosida izchil rivojlantirilishi lozim.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonini tashkil etishda ergonomik yondashuvning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Ergonomika fanining ta'lim jarayoniga integratsiyasi pedagogik muhitni insonning fiziologik, psixologik, intellektual va emotsional xususiyatlariga moslashtirishni taqozo etadi. Bu esa metodik kompetentlikning muhim tarkibiy qismi bo'lgan qulay, samarali va o'quvchi shaxsiga mos o'quv jarayonini loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Metodik kompetentlik bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tizimida markaziy o'rin tutadi. U pedagogning o'quv-tarbiya jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, ta'lim mazmunini maqsadga muvofiq tanlash, zamonaviy metod va texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, o'quvchi shaxsining yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda jarayonni boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Metodik kompetentlik mazkur jarayonning har bir bosqichida pedagogning nazariy bilimlari, amaliy malakalari va tajribasining uyg'unlashuvini ta'minlovchi integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Metodik kompetentlikning mazmuni o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bir qator tarkibiy komponentlardan iborat. Birinchidan, o'qituvchining metodik bilimlari ta'lim konsepsiyalari, pedagogik tamoyillar, darsni rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslarni chuqur bilishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, metodik ko'nikmalar dars jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, tarbiyaviy metodlar va psixologik muloqot vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Uchinchidan, metodik malakalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarni hal etish hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi. To'rtinchidan, pedagogik refleksiya o'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy baholay olishi, natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya fani o'qituvchilari uchun metodik kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat bilim berish, balki shaxs tarbiyasini boshqarish, ma'naviy-axloqiy rivojlanishni ta'minlash va ijtimoiy faol pozitsiyani shakllantirish kabi mas'uliyatli vazifalarni amalga oshiradilar. Shu sababli ularning metodik tayyorgarligi tarbiyaviy faoliyat qonuniyatlari, shaxs psixologiyasining nozik jihatlari, kommunikativ o'zaro ta'sir mexanizmlari, konfliktologiya, motivatsiya nazariyasi hamda ijtimoiy tarbiya metodologiyasini chuqur egallashni talab etadi.

Metodik kompetentlikning ahamiyati bir qator omillar bilan belgilanadi. Avvalo, u o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Kompetent o'qituvchi dars mazmunini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtira oladi, o'quv muhitini qulay tashkil etadi hamda bilish faolligini rag'batlantiruvchi metodlarni to'g'ri tanlaydi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida konstruktiv muloqot shakllanadi, ta'lim jarayoni mazmunan boyiydi va yuqori natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.

Ikkinchi muhim jihat shundan iboratki, metodik kompetentlik pedagogning kasbiy refleksiyasi va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi. Bunday pedagog o'z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlay oladi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan muntazam tanishib boradi hamda o'z metodik repertuarini izchil boyitadi. Bu holat tarbiya jarayonining sifatini oshiradi va o'quvchilarga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sir samaradorligini kuchaytiradi.

Uchinchidan, metodik kompetentlik pedagogni innovatsion jarayonlarga tayyorlaydi. Zamonaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, onlayn platformalar, multimediali darslar, masofaviy o'qitish, o'yinli texnologiyalar va raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Ergonomik yondashuv bilan uyg'unlashgan metodik kompetentlik o'qituvchiga ushbu texnologiyalarni qulay, sifatli va o'quvchi salohiyatiga mos tarzda tatbiq etish imkonini beradi.

To'rtinchidan, metodik kompetentlik tarbiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etishda pedagog faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shaxslararo ziddiyatlar, moslashuv muammolari va motivatsiyaning pasayishi kabi tarbiyaviy masalalarni to'g'ri metodik yondashuvsiz samarali hal etib bo'lmaydi. Metodik kompetentligi yuqori bo'lgan o'qituvchi bunday vaziyatlarda ilmiy asoslangan, psixologik ehtiyojlar va tarbiyaviy maqsadlarga mos qarorlarni qo'llay oladi.

Shuningdek, ergonomik yondashuvning integratsiyasi metodik kompetentlikni yanada boyitadi. Ergonomika pedagogning dars jarayonini nafaqat mazmuniy, balki psixologik, texnologik, estetik va tashkiliy jihatdan qulay tarzda tashkil etishini ta'minlaydi. Bu esa o'qituvchining kasbiy samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning psixologik yuklanishini me'yorlashtiradi va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Ta'lim jarayoniga ergonomik yondashuv inson faoliyatining psixofiziologik, kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda o'quv muhitini maksimal darajada qulay va samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy-metodik paradigma sifatida qaraladi. Ergonomika dastlab texnik, ishlab chiqarish va mehnat jarayonlarini optimallashtirish bilan bog'liq fan sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyingi yillarda pedagogik faoliyatning murakkablashuvi, axborot yuklamasining ortishi va ta'lim texnologiyalarining raqamlashtirilishi natijasida ta'lim sohasi bilan uzviy bog'lanib bordi. Natijada ergonomik yondashuv pedagogik jarayonda inson omilini ustuvor o'ringa qo'yuvchi zamonaviy metodologik asos sifatida e'tirof etila boshladi.

Ergonomik yondashuvning markazida "insonga moslashtirilgan ta'lim muhiti" konsepsiyasi mujassam. Mazkur yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchi va pedagogning individual xususiyatlarini, balki ularning fiziologik imkoniyatlari, ish qobiliyati, kognitiv yuklama darajasi, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarining tabiiy cheklanishlarini ham hisobga olishi lozim. Shu sababli ergonomika ta'limni insonning psixofiziologik imkoniyatlariga moslashtirish tamoyiliga tayanadi.



Ergonomik yondashuvning nazariy asoslari bir nechta fanlararo konsepsiyalar orqali izohlanadi. Psixofiziologik nazariyaga ko'ra, o'quvchining idrok, diqqat, xotira, tafakkur va hissiyot kabi ruhiy jarayonlari cheklangan energiya hamda vaqt resurslariga ega. Demak, o'quv jarayonining mazmuni va sur'atini rejalashtirishda o'quvchining psixologik yuklama me'yorlari hisobga olinishi zarur. Bu dars vaqtini ergonomik taqsimlash, vizual va audiokontentni me'yorlashtirish hamda informatsion ortiqcha yuklamadan, ya'ni kognitiv overloading holatidan qochishni talab etadi.

Kognitiv ergonomika insonning fikrlash jarayonlari, qaror qabul qilish, axborotni qayta ishlash va o'zlashtirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida o'quv materialining strukturaviy jihatdan mutanosib bo'lishini, ma'lumotlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikning aniq ifodalanishini, ko'rgazmali vositalarning kognitiv yuklamani kamaytirishini hamda murakkab tushunchalarning bosqichma-bosqich soddalashtirilgan shaklda bayon etilishini taqozo etadi. Bu talablar bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining metodik kompetentligini shakllantirishda muhim omil bo'lib, dars mazmunini ergonomik jihatdan to'g'ri loyihalashga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik ergonomika ta'lim jarayonidagi o'zaro munosabatlar, muloqot madaniyati, emotsional muhit, o'quvchining psixologik xavfsizlik darajasi va motivatsiyasiga tayanadi. Ta'limda ergonomik yondashuv o'qituvchidan o'quvchilarning stress darajasini kamaytiruvchi ijobiy muhit yaratishni, konstruktiv muloqot texnikalaridan foydalanishni, hamkorlikni qo'llab-quvvatlashni hamda emotsional barqarorlikni ta'minlovchi metodlarni qo'llashni talab qiladi. Ushbu omillar tarbiyaviy faoliyatni yanada sifatli tashkil etishga xizmat qiladi.

Didaktik ergonomika ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining qulay, maqbul va samarali bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. U qulaylik tamoyili, moslik tamoyili, iqtisodiylik tamoyili hamda ergonomik metafora tamoyili orqali ifodalanadi. Mazkur tamoyillar bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining metodik repertuarini shakllantirishda asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalar ergonomikasi raqamli pedagogika, interfaol metodlar, vizualizatsiyaga asoslangan ta'lim, gamifikatsiya va onlayn platformalarning ergonomik talablar asosida tashkil etilishini nazarda tutadi. Bu jarayon axborot-kommunikatsiya vositalarining psixologik yuklamani oshirmasligini, elektron ta'lim muhitining qulay interfeysga ega bo'lishini, raqamli o'quv resurslarining ergonomik dizayn asosida yaratilishini hamda pedagogning raqamli ko'nikmalarini ergonomik kompetensiya bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ergonomik yondashuv ta'lim jarayonining tashkiliy jihatlari, jumladan, sinf xonasi dizayni, yoritish tizimi, ovoz va havo almashinuvi, mebel joylashuvi o'quvchilarning psixofiziologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini e'tiborga oladi.

Ergonomikaning pedagogik jarayonga qo'shgan qiymati shundan iboratki, u o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi, psixologik charchoq, e'tibor tarqoqligi va stressni kamaytiradi, motivatsiyani kuchaytiradi, dars jarayonini tartibli, qulay va funksional holga keltiradi, o'qituvchining mehnat unumdorligini oshiradi hamda tarbiyaviy ta'sir kuchini kuchaytiradi. Shu bois ergonomika ta'lim jarayonining muhim sifat kafo-lati sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida metodik kompetentlikni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim nazariyasida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. A. Karimovning psixologiya faniga oid tadqiqotlarida shaxs faoliyatining samaradorligi ta'lim jarayonida psixologik qulaylik va muhit bilan chambarchas bog'liqligi asoslab beriladi, bu esa ergonomik yondashuvning muhim nazariy asosini tashkil etadi. R. Jo'rayev umumiy psixologiya sohasidagi ishlarda o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda idrok, diqqat va ishchanlik holatlari muhim omil ekanligini ta'kidlab, ta'lim jarayonini inson imkoniyatlariga mos tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar va ularning amaliy samaradorligi masalalari D. Sharipovning ilmiy qarashlarida tizimli tarzda yoritilgan bo'lib, unda ta'lim jarayonini loyihalashda ergonomik talablarni inobatga olish metodik faoliyat samaradorligini oshirishi qayd etiladi. A. Azizxo'jayevning pedagogik texnologiyalar bo'yicha izlanishlari esa o'qituvchining metodik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion va qulay ta'lim muhiti yaratish muhimligini asoslaydi. Ushbu yondashuvlar tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik faoliyatni ergonomik talablar asosida tashkil etishga imkon beradi.

Ijtimoiy va tarbiyaviy jarayonlarning psixologik jihatlari Z. Matyoqubova va G. Yunusovanning tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Ularda shaxslararo munosabatlar, tarbiyaviy ta'sir vositalari va muhitning qulayligi metodik faoliyat sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Mazkur ilmiy qarashlar bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarning metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish nazariy va amaliy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni empirik va nazariy metodlar uyg'unligida o'rganildi. Ma'lumotlar oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida kuzatuv, so'rovnomalar va suhbat usullari orqali yig'ildi. Shuningdek, o'quv mashg'ulotlari jarayonida yaratilgan metodik ishlanmalar va dars ishlanmalari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili, taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, ergonomik talablarning metodik kompetentlik rivojiga ta'siri aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalarini asoslashda statistik guruhlash va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ergonomik yondashuv asosida metodik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasining samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga tatbiq etilgan amaliy tajribalar ijobiy natijalar berganini ko'rsatdi. Olingan natijalar mazkur texnologiyaning nafaqat nazariy jihatdan asoslanganligini, balki amaliyotda qo'llanilganda talabalarning metodik tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada oshishini ham tasdiqladi.

Dastlab, texnologiya asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar talabalarning dars jarayonini ergonomik nuqtai nazardan loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, tajriba guruhidagi talabalar dars ishlanmalari tuzishda o'quvchilarning psixologik yuklamalarini inobatga olish, ko'rgazmalilik darajasini me'yorlashtirish, o'quv materialini soddalashtirilgan, tizimli va funksional ko'rinishda taqdim etish kabi metodik yondashuvlarni samarali qo'llay oldilar. Bu holat darslarning qulay, aniq va tushunarli tashkil etilishiga xizmat qildi.

Shuningdek, ergonomik yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kognitiv ergonomika bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamladi. Talabalarning o'quv materiallari dizayni, vizual resurslar bilan ishlash, multimedia vositalarini ergonomik tamoyillar asosida qo'llash borasidagi malakalari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, infografika, diagramma, grafik va ta'limiy videolardan ortiqcha yuklamasiz, maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish ularning kompetentligini amaliy jihatdan kuchaytirdi.

Tajriba natijalari ergonomik yondashuv asosida o'tkazilgan darslar talabalarda emotsional barqarorlik, muloqot madaniyati, hamkorlik va refleksiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirganini ko'rsatdi. O'quv jarayonining psixologik qulay muhitda tashkil etilishi talabalarning motivatsiyasini oshirib, o'zaro yordam va ijobiy fikr almashinuvining kuchayishiga olib keldi. Bu esa kelgusida ularning tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar ergonomik yondashuvning raqamli pedagogika bilan integratsiyasi yuqori samaradorlikka ega ekanini ham tasdiqladi. Talabalar elektron ta'lim platformalaridan foydalanishda qulay interfeys yaratish, o'quvchilarning e'tiborini charchatmaydigan didaktik materiallar ishlab chiqish, onlayn mashg'ulotlarda axborot yuklamasini boshqarish kabi ko'nikmalarni amaliyotda mustahkamlashga erishdilar. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim bo'lgan raqamli kompetensiyaning ergonomik asosida shakllanishiga xizmat qildi.

Bundan tashqari, metodik kompetentlikning rivojlanishi talabalarning pedagogik vaziyatlarni ergonomik tahlil qilish qobiliyatida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Tajriba jarayonida ular dars davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni oldindan baholash, stress holatlarini kamaytirish hamda o'quvchilar faoliyatini ergonomik jihatdan tashkil etish bo'yicha konstruktiv yechimlar taklif qila oldilar. Bu esa talabalarda kasbiy refleksiyaning yanada kuchayganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, olingan natijalar ergonomik yondashuv asosida ishlab chiqilgan texnologiya pedagogika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari uchun yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ergonomikaning psixofiziologik, kognitiv, didaktik va psixologik tamoyillari pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, o'qituvchi faoliyatini inson omillariga moslashtirish hamda o'quvchi shaxsining individual rivojlantirish xususiyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ergonomik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik texnologiya pedagogika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan.

Ergonomik muhitni loyihalash, dars jarayonini psixologik va kognitiv yuklamalardan holi tarzda tashkil etish, metodik vositalarni o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirish, raqamli ta'lim resurslaridan ergonomik talabalar asosida foydalanish kabi faoliyatlar talabalarning kasbiy mahoratini sezilarli darajada oshirdi. Shuningdek, ergonomik yondashuv bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining refleksiv fikrlashini, ijodiy qaror qabul qilish ko'nik-



malarini hamda dars jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ergonomik tahlil qilish va pedagogik yechimlar ishlab chiqish salohiyatini rivojlantirdi.

Xulosa qilib aytganda, ergonomik yondashuv asosida metodik kompetentlikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, tarbiyaviy jarayon samaradorligini kuchaytirish hamda zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini innovatsion bosqichga olib chiqishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov A. Psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 456 b.
2. Jo'rayev R. Umumiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 384 b.
3. Sharipova D. Pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 310 b.
4. Matyoqubova Z. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 270 b.
5. Azizxo'jayev A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Sano-standart, 2016. – 200 b.
6. Yunusova G. Oila psixologiyasi va tarbiyaviy jarayon. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 228 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.